

Tarbiyada ta'til yoki fasl bo'lmaydi.

F.T.Hamidova NavDPI
pedagogika va psixologiya
kafedrası o'qituvchisi,

Tarbiya biz uchun yo hayot,
yo mamot, yo najot, yo halokat,
yo saodat, yo falokat masalasidir.

[Abdulla Avloniy]

Tarbiya oddiygina bir so'z bo'lib tuyilishi mumkin, lekin u juda katta qudratga egadir. Bunday kuchli qudrat egalari bizning kelajagimiz yoshlaridir. Fazilatli o'g'il va qizlar har bir davlatning eng katta boyligi bo'lib ularning tarbiyasiga katta e'tibor berishimiz lozimdir. VII asrdayoq payg'ambarimiz Muhammad alayhisalom bashorat qilib "o'zimizdan keyingi qoladigan ummatlarim uchun 3 narsadan qo'rqaman.

1. Nafs havoga berilib , yo'ldan ozishdan.
2. Nafsoniy va shahvoniy hissiyotga berilib ketishdan .
3. Ilm ma'rifatli bo'la turib g'ofillar ishini tutishdan"

deganlar. Payg'mbarimiz bashoratlari asosida tarbiya berib tarbiyasizlikning oqibati o'linga olib kelishi mumkinligini uqtirib o'tganlar .

Amir Temur o'z davrining ma'rifatli kishisi, o'tmishning ma'naviy saboqlaridan yaxshi xabardor inson sifatida sog'lomlik faqat jismoniy kuch-quvvat emas, balki olijanob insoniy fazilatlar uyg'unligiga erishmoq ekanligini ham yaxshi anglagan. U barloslarning ulug' amirlaridan bo'lmish padari buzrukvori, muarrix Sharafiddin Yazdiy ta'biri bilan aytganda, "ulamo va sulaho muttaqilarga mushfiq va mehribon" Muhammad Tarag'aydan olgan saboqlarni bir umr unutmadi. Muhammad Tarag'ay o'z farzandini mardlik va farosatlilik , qattiq qo'llik va mehr-oqibat ruhida voyaga yetkazdi. Agar Amir Temur buyuk saltanatga asos solgan bo'lsa, bu sharafga mana shu yuksak tarbiya oqibatida erishgan.

Sohibqiron farzandlarida uch xislat mujassam bo'lishini istardi. Eng avvalo, insonparvarlik so'ng mushoxadalilik va nihoyat oqibatlilik — bosiq Insonparvar odamgina saxiy bo'lishi mumkin. Mushoxadali, bosiq odamgina jang-u jadalda xatoga yo'l qo'ymaslikka, ulkan saltanatni boshqarishga qodir. Kimki jasur bo'lsa-yu, insonparvar bo'lmasa, jismonan baquvvat bo'lsa-yu, mushoxadalik bo'lmasa, dono bo'lsa-yu, bosqlik bo'lmasa, unday odam komil inson bo'lolmaydi, unday odam boshqalarni ham, o'zini ham halok etadi. Kimki raqibi bilan olishganda ham insonparvarlikni unutmasa, u albatta yengadi. "Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, o'ylab ish qilish qilich kuchidan o'n karra foydaliroqdir", deb ta'kidlaydi ulug' Sohibqiron.

Aslida bolaga tarbiya berish u tug'ilmasdanoq boshlanadi va dunyoga kelgandan so'ng bolani sizlab erkalatish uning yonida bemani ibora va so'zlarni ishlatmaslik kerak. Bolaga eng birinchi tarbiya ona allasi orqali uning qon qoniga singdiriladi. Alla bilan ulg'aygan bola mehrli va nafosatli bo'ladi, birovga mehr bera oladi hamda mehr topadi. Demak tarbiya har sohada va daqiqalarda kechiktirilmay tanaffussiz amalga oshiriladigan jarayondir. Tarbiyada ta'til yoki fasl bo'lmaydi. Shunday ekan bola tarbiyani faqat ota-onasidan emas, balki maktabdagi sinf rahbaridan, do'stlaridan, qo'ni qo'shnisidan va tevarak - atrofdan o'zi uchun kerakli hislatlarni o'zi bilmagan tarzda o'rganib oladi. Bolani yaxshi tarbiyaviy fazilatlarni egallashi uni uyida olgan tarbiyasiga bog'liq bo'ladi. O'zbek xalqining tarbiyasi mehr,sadoqat, yaxshilik, ibrat namuna bilan yo'g'rilib, insonparvarlik mehnatsevarlik, vatanparvarlik, do'stlik, birodarlik kabi yuksak fazilatlarni shakllantiradi.

Inson tarbiyasi azaliy mavzu. Alloma Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda insonga o'lim, halokat va falokat keltiruvchi tarbiya omillari ham mavjud. Ayniqsa begona ruhiyat bilan milliy tarbiyani amalga oshirib bo'lmaydi.O'z vaqtida Cho'lpon „...Ovro'paning modasidan, shishasidan, buzuq axloqidan saqlaning''- deya aytib o'tganlar. Ha tarixdan xulosa chiqarib yashashni bilish ham o'ziga xos tarbiya hisoblanadi. Tarbiyada dunyoga qaysi ko'z bilan qarash alohida ahamiyat kasb etadi.

Mehr ham tarbiyada katta rol o'ynaydi. Pedagog va fiziolog olimlarning ta'kidlashicha, mehrning quvvati ona allasi orqali berilsa bolada tuyg'u chuqur tarbiyalanadi. Mehr og'riqni qoldiruvchi, ruhiy quvvat bag'ishlovchi, bemorni sog'aytiruvchi vosita. Mehr sust yoki bo'lmagan joyda tarbiya jonsiz va ruhan qashshoq bo'ladi. Yana katta muammolardan biri tarbiyasi og'ir bolalar bo'lib bunday bolalar barcha maktablarda uchrab turadi. Malumki, hech bir bola tarbiyasi og'ir bo'lib tug'ilmaydi. Hayot davomida sog'lom muhitda sog'lom tarbiyani o'z vaqtida bermasligi bois tarbiyasi qiyinlar shakllanadi.

Shu narsani alohida takidlash lozimki, biz katta avlod ota-onalar, o'qituvchi-murabbiylar hamda keng jamoatchilik vakillari tarbiyasi og'ir bolalar oldida uyalishimiz o'zimizni to'la-qonli aybdor deb hisoblashimiz kerak. Hayotda ularning o'rnini topib berish va sog'lom muhitga qaytarish har birimizning insonparvarlik burchimiz bo'lib qolmog'i darkor.

Tarbiya har bir insonning hayotida yashashi mobaynida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarini ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayonidir.

Yurtboshimiz I.A.Karimov « tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda», deb alohida takidlaydi.

Tarbiya haqida so'z borar ekan bu jarayonni ochilmagan qirralari juda ham ko'p va tugatib ham bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda uzluksiz tarbiya yo'nalishidagi barcha islohotlarning bosh maqsadi-dunyo miqyosida shaxsni qadrsizlantirish jarayonini sekinlashtirish va uning oldini olishga xizmat qilmog'i hamda ta'lim tizimini insonparvarlashuvdan iborat bo'lmog'i va kelajagimiz bo'lgan yoshlar tarbiyasini mustahkam manaviyatini har tomonlama yuksak qilmog'i lozim